



UDK: 81/82

Iroda MIRMAHMUDOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PhD, dotsent H.Turdiyeva taqrizi asosida

RASMIY–IDORAVIY USLUBNING BIR BO'LIMI SIFATIDA DIPLOMATIK USLUBNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rasmiy–idoraviy uslubning bir bo'limi sifatida diplomatik uslubning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda rasmiy–idoraviy uslubning funksional xususiyatlari, uning ijtimoiy–huquqiy munosabatlari, davlatlararo va ichki aloqalardagi roli yoritilgan. Diplomatiy yozishmalarining o'zgacha xususiyatlari, standartlashgan til qoidalari, klishe va shablonlarning qo'llanilishi orqali ushbu uslubning aniqlik va aniq bayonga bo'lgan talablari tushuntirilgan. Hujjatlarning funksional roli, diplomatiyada til tanlashning o'ziga xosligi, uning chegaralangan, ammo universal xususiyatga egaligi qayd etilgan. Diplomatiy yozishmalarining leksik va uslubiy xususiyatlari xalqaro munosabatlarda samarali muloqot va ishonchli hujjat yaratishdagi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida diplomatik aloqalarda aniqlik, vazminlik va ehtiyotkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: rasmiy–idoraviy uslub, funksional xususiyatlar, ijtimoiy–huquqiy munosabatlar, standartlashgan til qoidalari, klishe, shablonlar, diplomatik hujjat, protokol qoidalari, diplomatik uslub, uslubiy xususiyatlar, nota, funksional uslub, diplomatik til, leksik xususiyatlar.

PECULIARITIES OF STUDYING THE DIPLOMATIC STYLE AS A BRANCH OF THE OFFICIAL–DEPARTMENTAL STYLE

Annotation

This scientific work analyzes the role and significance of diplomatic style as a branch of official–departmental style. It highlights the functional features of official–departmental style, its role in social and legal relations, interstate and domestic relations. The specific features of diplomatic correspondence, standardized language rules, the requirements of this style for clarity and precise statement through the use of clichés and templates are explained. The functional role of documents, the specificity of language choice in diplomacy, and its limited but universal nature are noted. The lexical and stylistic features of diplomatic correspondence are important for effective communication and the creation of reliable documents in international relations. This, in turn, plays an important role in ensuring accuracy, restraint and prudence in diplomatic relations.

Key words: official–departmental style, functional features, social–legal relations, standardized language rules, cliché, templates, diplomatic document, protocol rules, diplomatic style, stylistic features, note, functional style, diplomatic language, lexical features.

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО СТИЛЯ КАК ВЕТВИ ОФИЦИАЛЬНО–ВЕДОМСТВЕННОГО СТИЛЯ

Аннотация

В данной научной работе анализируются роль и значение дипломатического стиля как ветви официально–ведомственного стиля. Выделяются функциональные особенности официально–ведомственного стиля, его роль в общественно–правовых отношениях, межгосударственных и внутригосударственных отношениях. Разъясняются специфические особенности дипломатической переписки, стандартизированные языковые правила, требования этого стиля к ясности и точности изложения за счет использования клише и шаблонов. Отмечается функциональная роль документов, специфика языкового выбора в дипломатии, его ограниченный, но универсальный характер. Лексические и стилистические особенности дипломатической переписки важны для эффективного общения и создания достоверных документов в международных отношениях. Это, в свою очередь, играет важную роль в обеспечении точности, сдержанности и осмотрительности в дипломатических отношениях.

Ключевые слова: официально–ведомственный стиль, функциональные особенности, социально–правовые отношения, нормативные языковые правила, клише, шаблоны, дипломатический документ, протокольные правила, дипломатический стиль, стилистические особенности, записка, функциональный стиль, дипломатический язык, лексические особенности.

Kirish. Muloqot va nutq jamiyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'zining xilma–xilligi bilan olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Jamiyatda insonlarning o'zaro muloqotida namoyon bo'ladigan nutq ko'rinishlaridan biri bu rasmiy–idoraviy uslubdir. Tilning eng qadimiy funksional uslublaridan biri sifatida rasmiy–idoraviy uslub adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bu uslub rasmiy va juda muhim sohalaridagi muloqotlarda qo'llaniladi: davlatlarning o'zaro muloqatida, davlatning tashkilotlar, muassasalar, korxona va aholi bilan muloqotida, hamda shaxsning jamiyat bilan muloqatida. Zamonaviy rasmiy–idoraviy uslub hozirda asosan yozma shaklda ko'proq uchraydi, lekin og'zaki shakli ham mavjud (davlat va jamoat arboblarining rasmiy uchrashuv, tantanali yig'ilish va tadbirlardagi nutqlaridir). Rasmiy–idoraviy uslub boshqa uslublari orasida barqarorligi, yopiqligi va standartlashganligi bilan ajralib

turadi, hujjat shakllari, hujjatchilik janrining umumiy uslubi sekina va oz o'zgaradi.

Uzoq davr mobaynida tilshunoslar “funktional uslub” degan tushunchani to'g'ri shakllantirishga intilishgan. Ammo faqat XX asrning o'rtalarida, aniqrog'i, 1955–yilda mashhur tilshunos V.V. Vinogradov “uslub” tushunchasini turli xil izohlarini qamrab olgan ta'rifni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. V.V. Vinogradovning ta'rifiga ko'ra, “Funktional uslub–bu ijtimoiy anglangan va funksional jihatdan shartlangan, ichki birlashgan uslubiy vositalarni tanlash va qo'llash usullarining birikmasi bo'lib, bu yoki boshqa ijtimoiy, umummilliy til doirasidagi nutqiy aloqa vositalarining majmuasi sanaladi. Ushbu uslub boshqa shu kabi usullar bilan korrelyasiyada bo'lib, ular boshqa maqsadlarga mo'ljallangan va ushbu xalqning verbal ijtimoiy amaliyotida boshqa funksiyalarni amalga oshiradi”. Biroq funksional uslubning ilmiy tadqiqoti ancha oldin paydo bo'lgan.

1926–yilda tashkil etilgan Praga tilshunoslik to'garagi a'zolari ilk bor asosiy funksional uslublarni ajratishga va ushbu tushunchaning ta'rifini berishga intilishgan. Ular badiiy matnlarni tadqiq etish asosida ilk marta 4 ta “funktional uslub” ni qayd etishga muvaffaq bo'lganlar: og'zaki uslub, rasmiy–idoraviy uslub, akademik va lirik (estetik) uslub, publitsistik uslub keyinroq alohida funksional uslub sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Shunday qilib, 4 ta asosiy funksional uslub shakllantirilgan. Bu tasnif ilmiy lingvistikada muhim bosqich bo'lib, funksional uslublarni o'rganishning asosini yaratgan [1].

A.B. Shevninga ko'ra, rasmiy–idoraviy uslubning shaxsiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: “Rasmiy–idoraviy uslub orqali ifodalanadigan mazmun, uning katta ahamiyatini hisobga olsak, har qanday ikki ma'nolilikni va tushunmovchiliklarni chiqarib tashlashi shart. Rasmiy–idoraviy uslub ma'lum, kam yoki ko'proq cheklangan mavzular doirasi bilan xarakterlanadi” [2]. Bu degani, rasmiy–idoraviy uslubdagi yozishmalar aniqlik va tushunarlikka alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi, chunki bu uslubda har qanday noto'g'ri tushunish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Jumladan o'zbek adabiyotlarda rasmiy–idoraviy uslubga berilgan quyidagi izohlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, N.Mahmudov, A.Rafiev, I.Yo'ldoshevlar tomonidan akademik lisey o'quvchilari uchun yozilgan “Davlat tilida ish yuritish” darsligida rasmiy uslubga quyidagi tavsif berilgan: “Rasmiy–idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy–iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir” [3].

Yana bir o'zbek tilshunosi D.E. Lutfullayev rasmiy uslubni quyidagicha ifodalaydi: Rasmiy uslub jamiyat a'zolarining iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, madaniy, ijtimoiy sohalarida rasmiy doirada o'rnatilgan aloqa–munosabatlarini ifoda etish va qayd etishga xizmat qiluvchi nutq uslubidir [4].

O'zining “Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi” deb nomlagan o'quv qo'llanmasida M.Muhitdinova, N.Abdullayevlarning ham quyidagi izohni keltiradilar: “Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, o'zaro rasmiy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubi bo'lib, boshqa uslublardan hujjatlilik xususiyati bilan ajralib turadi” [5].

Rasmiy uslub xususiyatlaridan biri uning xilma–xilligida bo'lib, u nafaqat idoraviy ish hujjatlarini, qonunchilik, diplomatik aloqalarga oid rasmiy hujjatlarini ham qamrab oladi [6].

Turli mualliflar rasmiy–idoraviy funksional uslub tarkibida turli quyi uslublarni ajratishadi. Masalan, E.G. Rizel va P.F. Monaxov rasmiy–idoraviy funksional uslubning tarkibiga quyidagi quyi uslublarni kiritadi: kanselyariya uslubi, savdo–idoraviy uslub, sud–yuridik uslub va diplomatik uslub. I.R. Galperin esa tijorat hujjatlarini, yuridik hujjatlar, diplomatik hujjatlar va harbiy hujjatlar uslublarini ajratadi. Shunday qilib, barcha mualliflar rasmiy–idoraviy funksional uslub tarkibida turli xil quyi uslublarni nomlagan holda, diplomatik quyi uslubni alohida ajratib ko'rsatadilar. Bu diplomatik yozishmalarining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning rasmiy aloqa jarayonidagi muhim o'rnini ta'kidlaydi.

Shuningdek, rasmiy–idoraviy funksional uslub bir nechta funksional quyi uslublarga bo'linadi. Turli kichik uslublarni ajratish uchun kriteriyalar quyidagilardan iborat: kommunikatsiya usuli, model, manzildor turi va boshqa belgilar. Bu tahlil, rasmiy–idoraviy uslubning to'liq kontekstida turli xil quyi uslublar va ularning xosiyatlari bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi, bu esa ularning qo'llanilishi va aniqlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Umumiy tan olingan fikrga ko'ra, rasmiy–idoraviy uslubning nutqiy janrlarini tashkil etishdagi tilning takrorlanmas xususiyatlari quyidagilardan iborat: nutqiy strukturalarni standartlashtirilgani; klishe qo'llash; nutqni tuzishdagi til usullarining aniq belgilanganligi.

Bunday matnlarni yozish usullari uslubni subyektivlikdan, ortiqcha ma'lumotlardan va emosionallikdan xalos qilish uchun zarur. Shuningdek, bu uslubga til shablonlarini qo'llash xosdir. Til komponentlarini qo'llashdagi dasturlash esa uslubiy talab sifatida qaraladi. M.P. Brandes rasmiy–idoraviy

uslubning kommunikativ funksiyasini “долженствование, выступающее в форме императивности предписывающего–оценочного значения” deb ta'riflaydi [7].

Diplomatik uslub rasmiy–idoraviy uslubning quyi uslubi sifatida tavsiflash, shuningdek, diplomatik sohada qo'llaniladigan tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun ma'lum ahamiyatga ega. Diplomatik hujjatlar xalqaro munosabatlarda mamlakatning tashqi ishlar organlari orqali taqdim etiladigan muhim mahsulotlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatlarini tayyorlash san'atini o'zlashtirish, aniq ifoda shakllarini topish, va ayniqsa, ishonchli va samarali hujjat yaratish uchun zarur bo'lgan malaka va mahorat diplomatning asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda diplomatlar ko'plab variantlardan eng ma'qul va aniq variantni tanlab, uni hujjat shaklida qayd etishda tezkorlik bilan harakat qilishlari talab etiladi.

Yozma diplomatik faoliyat sohasidagi muloqotning xususiyatlarini tahlil qilish diplomatiya sohasidagi nutq faoliyatini tavsiflovchi o'ziga xos xususiyatlar majmuasini, ya'ni, diplomatik quyi uslubning stilistik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Diplomatik quyi uslubning stilistik xususiyatlari ro'yxati juda keng. Diplomatik hujjatlar har bir mamlakatning ijtimoiy–iqtisodiy tuzilishi, tili, madaniyati, etno–diniy xususiyatlari va siyosiy tizimidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, tarixiy davr va ijtimoiy tuzumdan qat'iy nazar, bunday hujjatlariga nisbatan qo'yiladigan talablar doimiy bo'lib qolmoqda.

Avvalo, diplomatik xizmat hujjatning qaysi turi tanlanishi kerakligini aniqlaydi. Hujjatning turi yuzaga kelgan vaziyatga muvofiq bo'lishi, protokol qoidalarini va an'analari inobatga olishi kerak. Masalan, shaxsiy notalarga shaxsiy nota, verbal notalarga esa verbal nota orqali javob berish qabul qilingan. Diplomatik hujjatlarida tashqi ko'rinish va rasmiy atributlar qanchalik muhim bo'lmasin, ularning mazmuni ustuvor ahamiyatga ega. Hujjatning mohiyati, ko'tarilayotgan masalalarning ahamiyati, faktlarning aniq, tushunarli va mantiqiy tarzda bayon qilinishi hamda keltirilayotgan dalillarning ishonarliligi diplomatik matning samaradorligini belgilaydi.

Diplomatik quyi uslubga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlarning mavjudligi (ularning ko'pchiligi nafaqat rasmiy idoraviy uslubida, balki boshqalarda ham uchraydi) davlatning diplomatik faoliyatining ko'p qirraliligi bilan izohlanadi, bu diplomatik faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan faoliyat va o'ziga xos nutq shakllarining xilma–xilligini belgilaydi. Bu, o'z navbatida, turli xil diplomatik hujjat turlarini o'z ichiga oladi. Uning yozma xilma–xilligi turli shakllarda amalga oshiriladi, masalan: 1) idora xos ichki hujjatlar; 2) diplomatik yozishmalar hujjatlar (shuningdek, konsullik xarakteridagi yozishmalar); 3) muzokaralar natijasida yuzaga keladigan hujjatlar va boshqalar [8]. Diplomatik sohada matn turlarini faoliyat turi asosida ham ajratish mumkin: diplomatik yozishmalar hujjatlar matnlari; muzokaralar natijasidagi matnlar; ommaviy axborot vositalarida nashr etish uchun matnlar, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb–sayti uchun matnlar; shartnomalar matnlari.

Bu matn turlari diplomatik aloqalarning turli jihatlarini ko'rsatadi va har bir toifa o'zining xos xususiyatlari va maqsadlari bilan ajralib turadi. Diplomatik hujjatlar tayyorlash jarayoni o'ziga xos o'quv jarayoni sifatida ham ko'riladi. Bu jarayonda mutaxassis o'z malakasini oshiradi, tezkor qarorlar qabul qilish va aniq ifoda shakllarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bunday ishonchli hujjatlar mamlakat manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazmun yadrosi, odatda, hajman kichik bo'lsa–da, hujjatning mohiyatini o'z ichiga oladi. U davlatning muayyan masalaga doir pozitsiyasini konsentrlangan holda ifodalaydi. Bu pozitsiya quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: konkret takliflarni kiritish va ularni muhokamaga taqdim etish; xalqaro munosabatlarda qabul qilingan normalarni buzgan yoki provokatsion harakatlar sodir etgan davlat yoki davlatlar guruhiga nisbatan norozilik bildirish; davlat manfaatlariga zarar yetkazmaslik yoki tinchlikka tahdidning oldini olish uchun ehtimoliy javob choralari yoxud profilaktik tadbirlar haqida ogohlantirish; aniq davlat yoki xalqaro voqeaga munosabatni

belgilash (rozilik, qoralash, ogohlantirish, chaqiriq); mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilgan tadbirlar haqida axborot berish.

Diplomatik xujjatlardagi diplomatik til muayyan chegaralangan va universal xususiyatga ega deb hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, diplomatiya tili doimiy ravishda nutqiy vositalarni tanlashda cheklangan bo'ladi. Diplomatik uslubning boshqa diskurs turlaridan farqi shundaki, unda belgilangan til doiralari mavjud bo'lib, ular leksik vositalarni tanlashda cheklovlar qo'yadi va ko'p funksional uslubda ifodalash tartibini belgilaydi. "Diplomatik til" atamasi ikki asosiy ma'noni ifoda etadi. Birinchi ma'noda, u rasmiy diplomatik aloqalar uchun ishlatiladigan tilni anglatadi. Ikkinchi ma'noda esa, u diplomatiyada umumqabul qilingan maxsus atamalar va iboralar to'plamini, ya'ni professional so'zlashuv lug'atini qamrab oladi. Bunday lug'at, shifokor yoki huquqshunos tili kabi, yuqori darajada ixtisoslashgan va o'ziga xosdir. Nemis olimi X. Vildner ta'kidlaydi: "Diplomatik uslub, avvalo, soddalik va aniqlik bilan farq qilishi kerak; bu yerda esa so'zning hunarmandona ifodasi emas, balki muayyan sharoitda har qanday mavzu uchun yagona mos so'zni tanlaydigan eng yaxshi soddalik nazarda tutilgan" [9]. Brifinglar va tashqi siyosat muassasalari mas'ullarining chiqishlari kontekstida "золотая середина" rasmiy-idoraviy uslub qonunlariga va diplomatik muzokaralar olib borish masterligiga maksimal darajada rioya qilishdagi muvozanatni anglatadi. Diplomatik quyi uslub "sovuq va odobli" til tonalligi bilan xarakterlanadi. Bu, o'z navbatida, rioya qilinishi kerak bo'lgan aniqlik, vazminlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi, bu esa diplomatik aloqalarning samaradorligi va aniqligini ta'minlaydi. Diplomatlar faoliyatida quyidagi atamalar va iboralar oddiy holat sifatida qabul qilinadi va faol qo'llaniladi:

"Pacta sunt servanda"—"Shartnomalar bajarilishi kerak". Bu tamoyil davlatlararo kelishuvlarning asosiy qoidasi sifatida e'tirof etiladi.

"Modus vivendi"—"Mavjud bo'lish usuli". U vaqtinchalik kelishuv yoki o'zaro munosabatlardagi muvaqqat o'zaro kelishuvni anglatadi.

"Veto", "xalqaro xizmatlar", "sovuq urush", "razryadka" kabi terminlar ham keng qo'llaniladi.

Ushbu atamalar, ko'plablotin lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, ular diplomatik tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular orqali diplomatlar aloqalarni aniq va tushunarli qilib ta'minlaydi.

Diplomatik hujjatlarga qo'yiladigan talablar o'ta maxsus bo'lib, kichik xatoliklar va imlo xatolari jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Diplomatiyada tildagi nopoklik yoki bir necha so'z sababli faqat tushunmovchiliklar emas, balki voqea-hodisalar ham yuzaga kelgan holatlar ko'p uchraydi. Amaliy jihatdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, hatto boshqa belgilar, ayniqsa, tinish belgilarining ham katta ahamiyati bor.

Diplomatik hujjatni tuzishda bir qator masalalarni hisobga olish kerak. Ilgari kuchga ega bo'lgan omillar—asosan katta kuchga ega davlatlar va turli harbiy—siyosiy guruhlar o'rtasidagi raqobat bilan bog'liq bo'lgan holatlardan tashqari, so'nggi yillarda xalqaro munosabatlarda yangi shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Bularga xalqaro terrorizm, millatchilik va diniy fanatizm kabi muammolar kiradi, ularning ahamiyati va ularni inobatga olish zaruriyati tez sur'atlar bilan oshib bormoqda. Hujjatning mazmun yadrosini tashkil etuvchi har bir formulirovka alohida e'tibor bilan tanlanishi va ishlab chiqilishi lozim. Buning maqsadi—hujjatning qoidalarini amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xalqaro, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy va boshqa oqibatlarni uning yaratuvchisi rejalashtirgan maqsadlarga to'la mos ravishda muvofiqlashtirishdir.

Diplomatik yozishmalarning mazmuni, qoida tariqasida, tashqi siyosat bo'limi rahbariyati, hukumat yoki davlat rahbarining siyosiy ko'rsatmalari bilan oldindan belgilanadi. Shu sababli, mutaxassislarining vazifasi ushbu ko'rsatmalarni aniq, o'ta aniq va maksimal darajada tushunarli til formulalariga joylashtirishdan iborat. Va bu, bir tomondan, rasmiylikni ta'kidlash uchun mo'ljallangan adabiy va lingvistik vositalarning qat'iyligini, ba'zan hatto taktik sabablarga ko'ra, diqqat bilan o'lgangan quruqligini nazarda tutadi. Boshqa tomondan, diplomatik hujjatlar uslubi muvozanatli, chuqur o'ylangan mazmunga maksimal darajada ishonarlilik va tushunarliklik va muvaffaqiyatli topilgan epitetlarni berish uchun tasviriylikka, ba'zan aforizmga va taqdimotning ravshanligiga nisbatan yuqori adabiy va stilistik talablarga bo'ysunadi.

REFERENCES

1. Байкова О.Л. Понятие функционального стиля в современной лингвистике. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-funktsionalnogo-stilya-v-sovremennoy-lingvistike>
2. Шевнин А.Б. Официально-деловой стиль. Матрица переводческих проблем: [учебное пособие] / А.Б. Шевнин; Уральский гуманитарный ин-т. Екатеринбург: Изд-во УрГИ, 2010. — с. 13.
3. Махмудов Н. Рафиев А., Йўлдошев И. Давлат тилида иш юритиш (академик лицейлар учун дарслик). — Тошкент, 2002. — б. 12
4. Лутфуллаев Д.Э. Мустиқиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. — Тошкент, 2020
5. Мухитдинова М., Абдуллаева Н. Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури.
6. Д.Э. Лутфуллаев. Мустиқиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. — Тошкент, 2020
7. Брандес М.П. Стилистика текста. Теоретический курс: учебник / Брандес М. П. — Москва: Прогресс-Традиция, 2004. — с. 143.
8. Фарафонова, Лариса Георгиевна. Система дипломатического подстиля и ее исследование на уровне текста: на материале современного немецкого языка. дис. кан. фил. наук. Москва, 1977
9. Язык дипломатии: традиции и современность / Международная научно-практическая Интернет-конференция "Язык и право: актуальные проблемы взаимодействия" // Л.А. Баландина. <http://www.ling-expert.ru/conference/langlaw1/langdiplomat.html> (дата обращения: 15.05.21)
10. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания, 1955, №1, — с. 73.